

Rahbar va yoshlar uchrashuvi tashkil etildi

// 07.05.2024

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/rahbar-va-yoshlar-uchrashuvi-tashkil-etildi>



"O'zkiyosanoat" AJ boshqaruvi raisi Timur Muxamedjanov Parkent tumani mahallalarida istiqomat qiluvchi, alohida e'tiborga muhtoj "og'ir" toifadagi yoshlar bilan uchrashdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi 37-sonli Farmonida keltirilgan ko'plab vazifalar yuzasidan bugungi kunda "og'ir" toifadagi yoshlarning muammolarini hal qilish, salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni talab yuqori bo'lgan kasb—hunarga o'qitish orqali bandligini ta'minlash, huquqiy ongini yuksaltirish maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.



Ma'lumot uchun, "O'zkiyosanoat" Ajga Toshkent viloyati Parkent tumanining "Kungay", "Nurobod", "O'choq", "Soy" va "Teman" mahallalaridan jami 26 nafar "og'ir" toifadagi yoshlar birlashtirilgan.

Timur Muxamedjanov har bir yosh bilan shaxsan suhbatlashib, ularni qiynayotgan muammolar va iltimoslarini tingladi. Muammolarini ijobiy hal qilish maqsadida mas'ullarga bir qancha topshiriqlar berildi.

Yoshlarning oila, mehnat jamoasi, ta'lim muassasalaridagi muhitini o'rganish, psixologik, moddiy yordam berish va qo'llab-quvvatlash masalalari muhokama qilindi.





"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati